



Alisher Navoiy nomidagi
Toshkent davlat o'zbek tili
va adabiyoti universiteti



TASHENEV
UNIVERSITY



“Alisher Navoiy va XXI asr”

10-ULUSLARARO KONFERANSI

Toshkent-Shimkent, 2025-yil 6-fevral

“Әлішер Науаи және XXI ғасыр”


10-ХАЛЫҚАРАЛЫҚ КОНФЕРЕНЦИЯ

Ташкент-Шымкент, 6 ақпан 2025 жыл

“Alisher Navo'i and the 21st century”

10th INTERNATIONAL CONFERENCE

Tashkent-Shymkent, February 6, 2025



**Alisher Navoiy nomidagi
Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti
Qozog'iston Respublikasi Jumabek
Tashenev nomli universitet**

«ALISHER NAVOIY VA XXI ASR»

**mavzusidagi 10-uluslararo konferansi
materiallari**

2025-yil 6-fevral

Toshkent – Chimkent – 2025

UO'K: 821.161.1=512.133

KBK: 83.3 (50')

A 51

Mas'ul muharrirlar:

Shuhrat SIROJIDDINOV,

filologiya fanlari doktori, akademik
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili
va adabiyoti universiteti rektori

Kanat BAYBOLOV,

Jumabek Axmetuli Tashenev nomli universitet rektori,
texnika fanlari doktori, professor

Tahrir hay'ati:

Boqijon To'xliyev (O'zbekiston), Nurboy Jabborov (O'zbekiston), Parida Bayneeva (Qozog'iston), Kemal Yavuz Ataman (Turkiya), Yashar Qosim (Ozarbayjon), Islam Jemeney (Qozog'iston), Farhod Rahimiy (Eron), Sholpan Arzimbetova (Qozog'iston), Karomat Mullaxo'jayeva (O'zbekiston), Janna Botabaeva (Qozog'iston), Baxtiyor Fayzullayev (Tojikiston), Dilnavoz Yusupova (O'zbekiston), Nozliya Normurodova (O'zbekiston), Shahlo Naraliyeva (Qozog'iston), Ilyos Ismoilov (O'zbekiston), Azizullah Aral (Afg'oniston), Orzigul Hamroyeva (O'zbekiston), Ozoda Tojiboyeva (O'zbekiston)

Ushbu to'plamda "Alisher Navoiy va XXI asr" mavzusidagi 10-uluslararo konferansi materiallari jamlangan. To'plamda Alisher Navoiy adabiy-ilmiy merosining mumtoz adabiyotimizdagi o'rni va bugungi kun uchun ahamiyati, shuningdek, shoir ijodiga bog'liq holda matnshunoslik va tilshunoslik muammolariga doir ilmiy maqolalar o'rin olgan. Navoiyshunoslikning bugungi holati va istiqboli borasida muayyan tasavvur berishi uning ahamiyatini belgilaydigan omillardan biridir. Kitob filolog mutaxassislar, ilmiy tadqiqotchilar, magistrantlar va bakalavr talabalari hamda keng o'quvchilar ommasiga mo'ljallangan.

Mualliflar qarashi va asarlar nomlaridagi imlo tahririyat nuqtayi nazaridan farqlanishi mumkin.

**Әлішер Науаи атындағы Ташкент
мемлекеттік өзбек тілі мен әдебиеті университеті**

**Қазақстан Республикасы Жұмабек
Тәшенев атындағы университет**

«ӘЛІШЕР НАУАИ ЖӘНЕ XXI ҒАСЫР»

**тақырыбындағы 10-халықаралық
конференция материалдары**

2025 жыл 6 ақпан

Ташкент – Шымкент – 2025

O'ZBEK NAVOIYSHUNOSLARI JOMIY HAQIDA

Rajabova Burobiya Tangirovna

yetakchi ilmiy xodimi, filologiya fanlari nomzodi,

O'z FA O'zbek tili, adabiyoti va folklor instituti

10.52773/tsuull.conf.navoiy.2025/EAP05552

Annotatsiya: Maqolada o'zbek navoiyshunoslari Navoiyning hayoti va ijod olami yuzasidan yozgan ilmiy ishlarida Abdurahmon Jomiy ijodining talay jihatlarini – ilmiy hamda badiiy ijod bilan bog'liq masalalarni ham yoritib bergani o'rganilgan. Unda katta va keyingi avlod navoiyshunoslarining 1925-yildan boshlab to Yangi O'zbekiston davrigacha yozgan kitob, dissertatsiya, maqola xarakteridagi tadqiqotlari qamrab olingan "Navoiy va Jomiy", "O'zbek navoiyshunoslari tadqiqotida Jomiy talqini" kabi masalalar tahlil va talqin qilingan. Qiyosiy o'rinlarda sharqshunos, tarixchi olimlarning bu boradagi ilmiy izlamlariga diqqat qaratilgan.

Kalit so'z va birikmalar: Navoiyshunoslik, jomiyshunoslik, badiiy ijod, qiyosiy aspekt, tarixiy siymo, madaniy muhit, o'zaro adabiy aloqalar

ABOUT THE ASSOCIATION OF UZBEKISTAN NAVAIYSHUNOS

Abstract: This article examines the contributions of Uzbek scholars to the study of Abdurahman Jami's creative work, focusing on both his scientific and literary output within the context of Alisher Navoi's life and literary world. The analysis encompasses a range of scholarly works—books, dissertations, and articles—produced by both early and subsequent generations of Navoi scholars, spanning from 1925 to the era of New Uzbekistan. The study explores key topics such as "Navoi and Jami" and "The Interpretation of Jami in Uzbek Navoi Studies," providing a comprehensive overview of these themes in the academic discourse. Additionally, the article considers the research conducted by Orientalists and historians on this subject, comparing these perspectives to highlight the broader academic and cultural context of the study.

Keywords: Navoi studies, Jami studies, artistic creativity, comparative aspect, historical figure, cultural environment, mutual literary relations.

O'zbek adabiyotshunosligida "Abdurahmon Jomiy va o'zbek adabiyoti" mavzusini tadqiq qilishda navoiyshunos olimlar Navoiyning hayoti, ijodi, asarlari, zamondoshlari haqida yozgan kitob, risola, maqolalarni o'qib o'rganish zarurati tug'ildi. Navoiyshunoslar tadqiqotlarida Navoiy haqida ma'lumotlar berish bilan birga Jomiy ijodining talay jihatlarini – ilmiy hamda badiiy ijod bilan bog'liq masalalarni ham yoritib berishgan. Biz ushbu masala va muammoni maqola doirasida yoritishga harakat qildik. Buni jadidchi-ma'rifatparvar Abdurauf Fitrat "O'zbek klassik musiqasi va uning tarixi" [27.12] asariga murojaatdan boshladik. U asarida usul haqida fikr yuritir ekan, Fitrat usul bobida Abdurahmon Jomiyning musiqa tarixiga bag'ishlab yozgan "Risolayi musiqa" kitobini ham tilga olgan. Umumsharq musiqasida Abdurahmon Jomiy asarida ham usul bobida ilmiy-fikrlar borligini alohida qayd etgan.

Akademik V.Zohidov o'zining "Ulug' shoir ijodining qalbi" kitobida Alisher Navoiy hayoti, faoliyati, asarlari, zamondoshlari, temuriylar davri, madaniy muhit, adabiy maktablar to'g'risida yaxshi tahlil va talqinlar yozgan. Bu borada Abdurahmon Jomiy haqida ham keng ma'lumotlar yozishga harakat qilgan. Olim Abdurahmon Jomiyning Samarqandda Ulug'bek madrasasida tahsil olgani, Davlatshoh Samarqandiy bu madrasaning qurilishi, ochilishi, dastlabki dars jarayonlari xususida "Tazkirat ush-

shuaro"da qimmatli ma'lumotlarni yozganiga urg'u bergan va o'quvchiga Jomiyning Ulug'bek madrasasida tahsil olgan iqtidorli talaba sifatida tanishtirgan. Yana u "Ulug'bekning fojiaiy o'limidan keyin Samarqand o'zining avvalgi madaniy markazlik mavqeini yo'qotishi va uning o'rnini XV asrning o'rtalaridan boshlab Hirot ola boshlaydiki, bu Sulton Husayn Boyqaro va Navoiy, Jomiy nomlari bilan bog'liqdir" [10. 48-49], deb izohlagan, bu davrni "Sharq adabiyoti tarixida oltin asr" deb baholagan.

Yana olim "Ulug' shoir ijodining qalbi"da Xuroson mulkida fazli kamol ahliga e'tiborning yaxshiligi xususida Navoiy "Muhokamat ul-lug'atayn"da bitgan gapini keltiradi va kitobda Navoiyning ijodiy kamolotda Lutfiy va Jomiyning ham xizmati borligini ta'kidlaydi, ya'ni "...uning zamondoshi, juda yaqin do'sti mashhur Abdurahmon Jomiy ham yaqindan ishtirok etadi. Navoiy ham unga juda katta samimiy muhabbat bilan qaragan. Uning chuqur aqlini, g'oyat boy ijodini ko'klarga ko'taradi" [10. 118]. Yoki "...she'r osmonining nodir shoh yulduzlaridan biri mashhur Abdurahmon Jomiy o'z tizmalarining ko'pida Navoiyni madh etgan, ko'klarga ko'targan, asarlarini unga bag'ishlagan" [10. 146].

Akademik A.Qayumov "Mashhur siymolar hayoti" ruknida yozgan "Alisher Navoiy" nomli kitobida ulug' shoir hayoti va ijodi to'g'risida ilmiy va badiiy xarakterdagi lavhalar yozar ekan, Navoiyning buyuk zamondoshi bilan o'zaro muloqotlari to'g'risida alohida "Abdurahmon Jomiy" nomli bob yozgan. Unda olim Navoiyning buyuk mutafakkirga bag'ishlab yozgan "Xamsat ul-mutahayyirin" asarida berilgan Jomiy haqidagi lavhalardan ba'zilarini, xususan, kitobxonlik, kitob mutolasi bilan bog'liq jihatlarni tahlil qilgan [28. 84-86]. Yana mazkur kitobning "Xamsa" nomli faslida ham A.Qayumov Abdurahmon Jomiyning tilga olgan. Voqea bayoniga ko'ra, Abdurahmon Jomiy Alisher Navoiyga "Xamsa" yozishga kirishish fursati yetganini uqtirganini gapirgan [28. 87]. Qizig'i shundaki, A.Qayumov Jomiyning mayin jilmayib turishi haqida o'zining badiiy tahlilini ham bitgan. Navoiy "Xamsa"ning Jomiyga bag'ishlangan fasllarida ham uning mayin jilmayib turgan portretini so'zda mahorat bilan chizgan.

Jomiy Navoiyning, Navoiy esa Jomiyning ba'zi asarlarining yaratilishi yoki tasnif qilishda, tuzishda ham bir-biriga maslahatlar berib turishgan. Bu haqda N.Mallayev "O'zbek adabiyoti tarixi" darsligida "Xazoyin ul-ma'oniyy" yaratilish tarixi, tuzilishi va tarkibi haqida ma'lumot yozar ekan, quyidagi fikrlarini aytgan: "Ijodini lirikadan boshlagan Navoiy qarilik ayyomiga qadar bu adabiy turdan yiroqlashmadi. U dostonlar, adabiy biografik yoki ilmiy asarlar yaratish bilan band bo'lgan chog'larida ham lirik tur bilan shug'ullanar, yangi-yangi she'rlar bitar edi. Natijada ikki devondan tashqari juda ko'p yangi she'rlari to'planib qoladi. Bu she'rlar soni Navoiyning ta'kidlashicha, avvalgi ikki devonidagi she'rlarnikidan ko'proq edi, ularni to'plab devon qilish zarur edi. Navoiy Jomiy bilan kengashadi, u barcha she'rlarini to'rt devon qilib tuzishni maslahat beradi. Bu maslahat Navoiyning rejalariga muvofiq keladi"[15. 434]. Shunday qilib, u 1491-1498-yillar orasida "Xazoyin ul-ma'oniyy"ni tuzadi va Sulton Husayn Boyqaro tahriridan o'tadi.

"O'zbek adabiyoti tarixi"ning 2-jildini Alisher Navoiyning buyuk shaxsi, har bir asarlari tahlili, davri, zamondoshlari va haqda yozilgan tadqiqotlariga qamrab olgan. Kitobda "Xamsat ul-mutahayyirin" nomli alohida fasl yozilgan. Unda Navoiyning Jomiyga bag'ishlangan ushbu asari batafsil tahlil qilingan [22. 374-384]. Mazkur tadqiqot O'zbekiston Qahramoni S.G'aniyeva tomonidan amalga oshirilgan. Olimning ta'kidlashicha, "Bu asar bir muqaddima, uch maqola va bir xotimadan iborat.Navoiy bu

asarida nafaqat Jomiy hayoti, nasabi, tug'ilishi, tarbiyalanishi, bilim olishi, shoir va olim sifatida shakllanishi haqida ma'lumotlar bergan, balki o'z davrining talay jihatlarini – ilmiy hamda badiiy ijod bilan bog'liq masalalarni ham yoritib bergan. Asarning adog'ida Jomiy vafoti munosabati bilan yozilgan marsiyasi berilgan. Mazkur marsiya S.Ayniy tomonidan diqqat bilan o'rganilgan. Marsiya 140 misra bo'lib, tarkibband janrida yozilgan. Uni Husayn Voiz Koshifiy minbarda juda ta'sirli tarzda o'qigan. S.Ayniy bu marsiya haqida quyidagi xulosa xarakteridagi fikrni yozgan: "Tarkibbandi Alisher, ki dar vafoti Chomi navishtaast, jonso'ztarin namunai adabiyoti marsiyagi ast... Chomi dar in tarkibband bo hamin azamati ilmi va adabi xud mujassam shuda menamoyad" [3. 468]. Tarjimasi: "Alisherning Jomiy vafotiga yozgan tarkibband marsiyasi adabiyotning eng jon o'rtovchi namunasidir... Bu tarkibbandda Jomiyning butun ilmiy va adabiy qudrati mujassamlangan" [4. 30].

S.G'aniyeva "Xamsat ul-mutahayyirin"ni o'rganishda davom etib "Yana "Xamsat ul-mutahayyirin" haqida"[25. 26-36] nomli maqola yozgan. Unda olima Jomiy va Navoiy orasidagi ijodiy hamkorlikning keng qamrovli ekanini ko'rsatuvchi bir qator ilmiy-tahliliy fikrlarni bitgan. 2004 yilda olima Jomiyning 590 yilligiga bag'ishlab "Xamsat ul-mutahayyirin"ni nashrga tayyorlagan. Tabdil va izoh tarjimalari S.G'aniyeva tomonidan amalga oshirilgan. U yana Jomiyning 1480-yilda Nizomiyning "Xamsa" siga javobiya tariqasida yaratilgan "Salomon va Absol" dostonining bosh qahramonlari xususida tadqiqot yozgan [26. 19-23]. U tadqiqotida doston ramz va tamsil tilidan so'zlanib, juda murakkab falsafiy tushunchalarni poetik tarzda yoritganiga urg'u beradi va mazkur doston yuzasidan tadqiqotlar bardavom bo'lishini aytib, shunday xulosa yozadi: "Xulosa qilib aytganda, "Salomon va Absol" ramziy-allegorik dostonlarning benazir namunalaridan bo'lib, uni chuqur va har tomonlama tadqiq etish galdagi vazifalarimizdan hisoblanadi" [26. 23].

H.Sulaymon "Devoni Foni"da Navoiy, Hofiz Sheroziy, Xusrav Dehlaviy, Sa'diy Sheroziy, Mavlono Kotibiy, Mavlono Mir Shohiy, Kamol Xo'jandiy kabi shoirlar g'azaliga bog'lab yozgan tatabbu'lari haqida tadqiq qilar ekan, uning Jomiyning 52 ta g'azaliga nazira yozganini tekshirgan [22. 157]. Yana Navoiy yoshligida she'riyatga oshno dilini maftun etgan shoirlar haqida gapirganda ham e'tirof tuyg'usi bilan Abdurahmon Jomiyi eslaydi.

Akademik I.Sulton Alisher Navoiy hayoti va ijodiga bag'ishlab yozgan "Navoiyning qalb daftari" kitobida ham ma'lum bir o'rinlarda Jomiy nomi, Alisher Navoiy bilan munosabati, o'zaro adabiy ta'sir va aloqalari xususida gapirgan. Ayniqsa, "Xamsa" haqida yozganida, Abdurahmon Jomiy haqida shunday e'tirofni yozadi: "Hirotda adabiy muhit boshida Abdurahmon Jomiy va Navoiydan so'ng, Husayn Boyqaroning o'zi turar edi" [21. 263]. Akademikning bu qisqa ilmiy fikri asosida katta bir talqin bor, chunki u temuriylar Uyg'onish davrida Hirot madaniy muhitining rivoji, shoir va adiblarning barakali ijod qilishi, sog'lom muhit, o'zaro adabiy ta'sir va aloqalarning ijobiy tus olishi, Hirot maktabida yaratilgan har bir ijod namunasiga Navoiy yoki Jomiyning bergan yuksak bahosi va ma'lum ma'noda Navoiyning "Majolis un-nafois"i bilan bog'liq adabiy-ma'rifiy suhbatlariga ham ishora qiladi.

Abdurahmon Jomiy va Navoiy maqbarasini ziyorat qilgan A.Hayitmetov o'zining Alisher Navoiyning ijodiy merosi bilan bog'liq tadqiqotlarida qiyosiy aspektda Abdurahmon Jomiy nomini ko'p tilga olinganini ko'ramiz. Misol sifatida uning "Alisher Navoiyning forsiy maktublari" nomli maqolasiga murojaat qilsak, unda olim kishilarining o'zaro yozishmalari ham nasrning bir bo'lagini tashkil qilishi xususida

gapirar ekan, Jomiy va Navoiy nomalarini tilga olgan. Chunonchi: "...shoir, adiblarning, yirik fan va madaniyat arboblarning maktublari katta adabiy qimmatga ega bo'lib, ular maktub mualliflarining o'zlari yoki ularning muxlislari tomonidan e'tibor bilan yig'ilar va saqlanar, hatto ulardan maxsus to'plamlar tuzilar edi. Shu jihatdan Abdurahmon Jomiy o'z maktublarini to'plab, forsiy "Munshaot", Alisher Navoiy esa o'zbek tilidagi maktublaridan turkiy "Munshaot" tuzganlari bejiz bo'lmagan, albatta" [29. 155]. Ma'lumki, Navoiyning "Xamsat ul-mutahayyirin" asari olimlar tomonidan ko'p tahlil qilingan. Ammo uning yana bir yaxshi izohini A.Hayitmetov yozganiga guvoh bo'lamiz. Birinchidan, olimning "Meros va ixlos" kitobida u Navoiyning rasmiy devonlariga kirmagan she'rlari xususida fikr yuritar ekan, "Xamsat ul- mutahayyirin"da o'zbekcha she'rlari bilan bir qatorda Abdurahmon Jomiy maktublariga javoban yozgan forsiy she'rlari ham bor" [30. 14] ligini aytgan. Ikkinchidan esa "Navoiyda lirik tahlil" maqolasida uning memuar biografik asarlarida ham lirik tahlillar borligini tekshirgan. O'qiyimiz: "Navoiy Abdurahmon Jomiy haqidagi "Xamsatul mutahayyirin", boshqa ustozlari haqidagi "Holoti Sayid Hasan Ardasher". "Holoti Pahlovon Muhammad" kabi asarlarida esa bu ulug' qalamkashlarning hayoti, ajoyib shaxsiyati haqida keng ma'lumot berish bilan birga ular ijodi, ayrim asarlarini xarakterlab o'tishga ham jiddiy ahamiyat bergan. Ularda ayrim lirik she'rlar va baytlarning hayotiy va falsafiy mazmuni ham chuqur tahlil qilib berilgan" [30. 20]. Navoiy maktublari xususida sharqshunos olimlardan A.O'rinboyev va M.Hasaniy "Navoiy zamondoshlari maktublari" [130 b.] da Jomiy maktublari bilan bog'liq qimmatli ma'lumotlar yozishgan: "...Bu maktubda Xo'ja Ahror Valiyning Jomiyga nisbatan shaxsiy munosabatlari bilan birga o'z davri tarixiy voqealaridan ham ayrim sahifalar aks etgan. Xat yozuvchi albatta biror voqeani tilga olgan o'z iltimosini bayon etgan. Jomiyning Navoiyga yuborgan maktublari, Navoiyning Jomiyga yuborgan maktublarini o'rganish XV asrdagi ijtimoiy va madaniy hayotni o'rganishda ham katta ahamiyatga ega. Jomiyning kimlarga maktub yo'llagani, Jomiy kimlar bilan yozishib turgani va bu maktublar qaysi manbalarda mavjud ekanini olimlar o'rganishgan. Mazkur kitobning "Navoiy yozishmalarini aks ettirgan manbalar haqida" nomli faslida Navoiy albomi haqida batafsil ma'lumot berilgan. "Majmuai mursalat" (Navoiy albomi) bu manba dastxatlar to'plami bo'lib, unda jami 594 ta xat bor. Ularning aksari Navoiyga, qolganlari esa Sulton Husayn Boyqaro hamda Jomiy va boshqalarga yo'llangan. Navoiy albomida 594 ta xatdan 337 tasi Jomiy qalamiga mansubdir. Ular 1982-yilda rus tiliga tarjimasi va fotonusxasi bilan hamda 1985-yilda Qobulda tipografik usulda chop etilgan. 1989-yilda esa Jomiyning boshqa manbalardagi xatlari bilan birga Dushanbeda arab harfida bosildi. Jomiy "Navoiy albomi"da keltirilgan 16 nafar mualliflardan biri hisoblanadi.

"Munshaoti Jomiy" ("Jomiy maktublari"). Jomiy o'z maktublarini yig'ib, o'zi munshaot tuzgan.

Xo'ja Ahror Valiy Sulton Husayn mirzoga, Jomiy va Navoiyga maktublar yo'llab, xalq ahvolini yaxshilash hamda o'zi uchun tegishli ba'zi masalalar haqida iltimosnoma qilgan. Shulardan biri Abdurazzoq Samarqandiyning "Matla' us-sa'din" asarida aks etgan.

Akademik Sh.Sirojiddinov "Alisher Navoiy manbalarining qiyosiy-tipologik, tekstologik tahlili" kitobining "XV asr ziyolilari Alisher Navoiy haqida" degan 2- ilovasida 20 nafar mualliflarni tilga olgan va Navoiy haqida ular aytgan qimmatli ma'lumotlarni kiritishga harakat qilgan. Shu faslning "Abdurahmon Jomiy zikrida"

nomli faslida Jomiy asarlarida Navoiy haqida ilmiy va adabiy, tarixiy xarakterdagi ma'lumotlar bergani aytilgan [18. 230-244].

Adabiyotshunos olim H.Boltaboyev "Sharq mumtoz poetikasining H.Boltaboyev talqinida" nomli o'quv-qo'llanma-majmua tuzgan. Unda badiiy so'z, Sharq poetikasi, badiiy san'atlar bilan bog'liq masala va muammolar yoritilgan manbalarni o'rgangan. Olim bu masalani yoritishda Abdurahmon Jomiy ijodidan ham unumli foydalangan. Kitobning 1-bobi "Badiiy so'z tabiati shoirlik tabiati" deb nomlanadi. Unda olim Abdurahmon Jomiyning shoir Boqir tomonidan tarjima qilgan "Silsilatu-l-zahab" [32. 46-51] dan bu mavzudagi lirik lavhalarni bergan. Ikkinchidan, olim D.Yusupova tomonidan tarjima qilingan kitobning "Qofiya ilmi"[32. 301-311] bobida Abdurahmon Jomiyning fors tilida yozgan "Risolai qofiya" kitobidan unumli foydalangan. Jomiyning har ikki asaridagi adabiyotshunoslikka doir ilmiy-nazariy fikrlarini she'riy usulda yozgan. Olim bu manbalarni talaba va magistrilar uchun tavsiya qilib to'g'ri qilgan.

Mamlakatimizda nashr qilingan ensiklopediyalar va darsliklarda Abdurahmon Jomiy to'g'risida ilmiy xarakterdagi muhim ma'lumotlar kiritilgan. O'zbekiston milliy ensiklopediyasiga atoqli olimlar A.Hayitmetov va Sh.Shomammedov qomus xarakterida "Jomiy" [23. 221-223] nomli katta hajmli maqola yozgan va ular o'quvchiga Jomiyning nafaqat ulug' shoir, adib, balki qomusiy olim, buyuk mutafakkir sifatida tanishtirgan. Maqolaga ilova qilib rassom P.Pantyuxin 1968 yilda mahorat bilan chizgan Jomiy portreti berilgan.

Akademik B.Valixojayev "Mumtoz siymolar" [7. 19-31] nomli kitobida "Abdurahmon Jomiy hayoti, faoliyati, ilmiy-adabiy merosi" nomli fasl yozgan. U mazkur faslda Jomiyning buyuk shaxsi, ibratli hayot yo'li, ijodiy merosi haqida yozar ekan, har birini: 1. Hayoti; 2. Merosi; 3. She'riyati; 4. Dostonlar turkumi ("Silsilat uz-zahab"; "Salomon va Absol"; "Tuhfat ul-ahror"; "Sabhat ul-abror"; "Yusuf va Zulayho"; "Layli va Majnun"; "Xiradnomai Iskandari"); 5. Nasriy asarlari ("Bahoriston", "Nafahot ul-uns", "Favoidi Ziyoiya" yoki "Sharhi Mullo", "Sharhi Jomiy") shaklida tasnif qilgan va qimmatli ma'lumotlar bergan.

Tarixchi N.Norqulov "Temuriylar davri madaniy tarixidan" [16. 88-90] nomli kitobida "Amir Temur saroyi olim va fozillari" nomli bobda temuriylar davrida yashab ijod qilgan buyuk siymolar haqida ham maxsus to'xtalgan va "Hazrati Mavlono Jomiy" nomli alohida fasl yozgan. Unda olim muarrix Mirsaid Roqim ma'lumotlari asosida Jomiyning biografiyasini yozgan. So'ngra "Bahoriston" asariga "Sabhat ul-abror", "Tuhfat ul-ahror" devonlari xususida ma'lumotlar bitgan. U ham "Bahoriston" Sa'diyning "Bo'ston" va "Guliston"i ta'sirida yozilganini gapirgan. Jomiyning Sulton Abu Said Mirzo zamonida "Devon" tartib bergani, risolalar yozgani haqida aytgan va qolgan asarlarini Sulton Husayn Boyqaro davlati a'yonida yozganini qayd etgan. N.Norqulov ham Jomiy va Navoiy munosabatlariga to'xtalgan va Jomiyning 44 asar nomlarini sanab keltirgan. Vafoti xususida, Amir Alisher Navoiyning tarkiband janri bilan marsiya yozganini aytib o'tgan.

Zahriddin Muhammad Bobur ensiklopediyasiga B.Yo'ldoshev, H.Boltaboyev, A.A'zam yozgan qisqa shakldagi "Jomiy" maqolasi o'rin olgan va ular Jomiy va Bobur mavzusini yoritishga harakat qilgan. Uning sharaflari nomi Alisher Navoiy qomusiy lug'ati, Alisher Navoiy ensiklopediyalariga ham kiritilgan. Agar "Alisher Navoiy qomusiy lug'ati"ga e'tibor qaratsak, unda O.Davlatov tomonidan juda batafsil yozilgan ma'lumotni o'qiymiz. Mutafakkir haqidagi ma'lumot qomusiy lug'atga "Jomiy, Mavlono Nuriddin Abdurahmon ibn Nizomiddin Ahmad" [5. 183-185] sarlavhasi ostida

berilgan. Ma'lumotda Abdurahmon Jomiyning tavalludi, ota-onasi, hasab va nasabi, Xurosonga kelishi, Shohrux Mirzo, Sulton Husayn Boyqaro hukmronligi davrida bo'lgan madaniy ko'tarilish, fozil shahar Hirotda yashab va samarali ijod qilishi, ilm talabidagi izlanishlari, yigirma bir yoshda astronomiya haqida bitgan birinchi ilmiy asari va uni Samarqandga jo'natgani haqida so'z boradi. Qozizoda Rumiya bu asari ma'qul kelgandan so'ng, Samarqandga tahsil uchun taklif, Toshkent, Turkiston Makka va Madina safari kabi yetti marta qilgan xayrli safarlar, yo'l taassurotlari, 1492-yilda Jomiyning vafoti va bu yo'qotish Navoiyni qattiq qayg'uga solgani, Navoiyning sohibi aza hamda marsiya muallifi ekani, yil oshida marsiyani Husayn Voiz Koshifiy minbarda o'qigani, uning asarlari shartli ravishda ilmiy va badiiy asarlarga tasnif qilingani, nomlari, ijod qilgan janrlari, nomlari haqida gapirilgan. Jomiyning ko'p asarlari Navoiy iltimosi bilan yaratilgani va ularning bir-birini qo'llab-quvvatlashi sabab badiiy obidalarining yaratilishi, shaharsozlik madaniyatida tutgan o'rni, Navoiy birinchi marta jomiyshunos olim sifatida ham e'tirof qilinishi kabi masala va muammolar yoritilgan. Yana qomusiy lug'atning Navoiyga bag'ishlab yozilgan maqolasida ham Navoiy va Jomiyning o'zaro ibratga yo'g'rilgan munosabati, adabiy ta'sir masalalari xususida ham xabarlar yozilganini o'qiymiz.

Sh.Sirojiddinov, D.Yusupova, O.Davlatovlar hammualliflikda yozgan "Navoiyshunoslik" darsligining "Zamondoshlari asarlarida keltirilgan ma'lumotlar" faslida Jomiyning "Bahoriston", "Haft avrang", "Nafohat ul-uns"da Navoiy hayoti va ijodiy faoliyati bilan bog'liq ma'lumotlar keltirgani xususida ham to'xtalgan [19. 6].

B.Rajabova 2024-yil "Ma'rifat" gazetasida "Jomiy va Bobur", "Jomiy va Mutribiy Samarqandiy", "Jomiy va Navoiy", "Adabiyot ziyosi" gazetasida "Rudakiy va Jomiy" va "Adabiy meros" jurnalida "XIV-XVI adabiy-tarixiy manbalarda Jomiy tasviri" kabi turkum maqolalar e'lon qildi. Yana u Navoiy "Xamsa"da faqat shoir Jomiy siymosini emas, balki faqih Jomiy haqida ham yozganini birinchilardan bo'lib talqin qilgan. Navoiy "Xamsa" dostonlari matnida bu atamani boshqa asarlari matniga nisbatan eng ko'p qo'llagan. Jumladan, u "Layli va Majnun"ning "Husayn Boyqaro madhida" nomli 7-bobda shohning faqihlar bilan fiqh ilmi masalalari yuzasidan qilgan suhbatlari, majlislari, bu majlisu suhbatlarda Husayn Boyqaro aytgan masalalarni sharhlab, izohlab faqihlarning risola, kitoblar yozishlari va bu harakatlari bilan shoh ham, faqihlar ham Abu Hanifa ruhini shod aylashlari haqida yozadi:

Bazmi aro har faqihi mohir,
Bir mas'ala qildi ersa zohir...
Har yerdaki, ul debon masoyil,
Andin fuqaho yozib rasoyil...
Har nuqtaki, ko'rguzub vuzuhin,
Shod aylab Abu Hanifa ruhini .

"Sab'ai sayyor"da u yashirin talmeh san'ati vositasida Abdurahmon Jomiy kitobxonga go'yo mashhur faqih imomi A'zam deb tanishtiradi. Shoir bu o'rinda yana takrorning oldini olib, fuqaho, ya'ni faqihlar ko'plik shakli o'rniga "fiqh eli" so'z birikmasini san'atkorona qo'llagan.

Y.E.Bertels Navoiy ijodiga baho berar ekan, u quyidagicha e'tirofni yozadi: "Tafakkurning biror sohasi yo'qki, u yangi fikr aytmagan bo'lsin. Navoiy erkin fikrning jonlanishiga ta'sir ko'rsatdi... U haqiqiy gumanizm g'oyalarini baralla kuyladi" [6. 203-204]. Ye.E.Bertelsning bu e'tirofiga yo'g'rilgan fikrini Jomiyga nisbatan ham baralla aytish mumkin.

Abdurahmon Jomiyning ma'lum bir ilmiy asarlari mamlakatimizda ilmiy tadqiqotlarga obyekt sifatida ham tortilgan. Masalan, O.Hamroyeva "Temuriylar davridagi poetikaga doir risolalarda qofiya ilmining qiyosiy tahlili" [31. 40 b] doktorlik dissertatsiyasi avtoreferatida u temuriylar davrida fan, adabiyot rivoji va she'r tuzilishi, qofiyashunoslikni o'rgandi. Olima dissertatsiyada qofiya va ifoda tarzi, qofiya tuzilishi va tadrijiy taraqqiyoti va genezisini o'rganar ekan, u temuriylar davrida yaratilgan poetikaga doir risolalarni tadqiqot obyekti sifatida o'rganadi hamda Jomiyning "Risolai qofiya" asarini ham tadqiq va tahlil qilgan. Jomiy risolasi asosida fors-tojik qofiya nazariyasining bir bosqichi sifatida tekshirgan. Dissertatsiyaning "Temuriylar davriga oid risolalarda qofiya takomili" nomli 3-faslida O.Hamroyeva "Abdurahmon Jomiyning "Risolai qofiya" asari temuriylar davri qofiya ilmi tadqiqiga bag'ishlangani, fors tilidagi muhim manbalardan biri ekani, 1465 yilda yaratilgani, Jomiy ushbu risolasini Shamsiddin Qays Roziyning "Al-mo'jam" asaridagi "Qofiya" qismiga asoslanib yozganini gapirgan" [1. 274-314].

Olima Zuhra Mamadaliyeva "Hotami Toy obrazi talqinlari yoki saxovat va himmatga bo'lgan ikki daho munosabati" [12.101-106] nomli maqolasida "Jomiyning "Bahoriston" asaridagi bir hikoyatni Alisher Navoiyning "Hayrat ul-abror" dostonining qahramoni Hotami Toy bilan qiyosiy tahlil qilgan. O'qib-o'rganishimizga ko'ra, Z.Mamadaliyeva tahlilga tortgan "Bahoriston"dagi hikoyat uning "Saxovat va karam bobida" [8. 39-40] nomli to'rtinchi ravzasida keltirilgan beshinchi hikoyat bo'lib, olimaxshsh qiyosiy tahlilni amalga oshirgan. Ya'ni, Jomiy va Navoiyning insonlarga xos eng noyob fazilatlaridan biri bo'lgan himmat, saxovat, mehnatsevarlik kabi xislatlarni bitta mashhur obraz – Hotami Toyi talqinida ko'rsatgan. Hotami Toyi arabning toyi qabilasidan bo'lib, o'zi qabila boshlig'i bo'lgan. Lekin islom olamigacha va islomdan keyin ham himmat va saxovatning buyuk timsoliga aylangan. U haqda Muhammad s.a.v. ning ham e'tiroflari bor. Olim Matg'oziyev bu obrazning genezisi, tarixi, tadriji, xalq og'zaki ijodi va ko'plab tarixiy-adabiy manbalar qahramoniga aylanishi, to bugungacha she'riy asarlarda ham talmeh san'ati misolida saxiylik timsoli sifatida kelishini o'rganib, "Hotami Toyi"[13. 350 b] nomli monografiya yozgan. Ma'lumki, adabiyotshunoslikda Hotami Toyi bilan bog'liq tadqiqotlar ham talaygina, lekin Z.Mamadaliyeva Jomiy yozgan Hotami Toyi hikoyatini va Navoiyning dostonidagi Hotami Toy obrazini qiyoslab o'rgangan. Ammo Navoiy dostonidagi Hotami Toyiga parallel o'tinchi chol obrazi borligini unutmaylik. U bu obrazga murojaat qilmagan, chunki Navoiy talqinida o'z mehnati bilan kun ko'ruvchi o'tinchi chol obrazi mashhur Hotami Toyidan ham baland qo'yilgan. Olima masalaning bu tomonini tahlilga tortmagan. O'zining uslubida ikki asardagi bir obraz talqini bilan chegaralangan. Har ikki hikoyatda Hotami Toydan himmatliroq kishi bormi, degan savolga javobni Jomiy "Hotami Toydan himmati baland, bu 15 ta qo'yini Hotami Toyi uchun so'ygan arab bolasidir. Navoiyda esa Hotami Toydan himmati baland bu o'tinchi chol obrazidir. Ushbu hikoyatlar misolida yana bir fikrni alohida ta'kidlagim keldi, ya'ni Jomiy "Bahoriston"ida Hotami Toyini hayratga solgan arab bolaga Hotami Toyi 30 ta tuya, 500 boshliq qo'y beradi. Fikrimcha, ma'lum ma'noda bu dadil arab bola bola Abdurahmon timsolidir. Ma'lumki, Jomiy arablarning shabbon urug'idan. Ammo arab tilida emas, fors tilida samarali ijob qilgan. Bu obrazni ishonarli qilib tasvirlagan Jomiy ma'lum ma'noda o'zining bolaligiga murojaat qilgan, desak mubolag'a bo'lmaydi.

Yurtimizning ko'plab adib, shoir, olimlar Jomiy maqbarasini ziyorat qilishgan. G'.G'ulom 1964-yilda Jomiyning 550 yillik tantanasi munosabati bilan Afg'onistonga

borgan va u yerda juda mazmunli ma'ruza qilgan hamda "Hirot turkumidan" nomli talaygina she'rlar yozgan. Olima G.Matyobova G'.G'ulomning mazkur ma'ruzasini o'zining "Purshukuh anjumandagi nutq" [14. 56-62] nomli maqolasida yaxshi tahlil qilgan. G'.G'ulomning Jomiy hayoti, ijodi, fazilati, boy merosini ochib beruvchi mazkur maqolasida, u birinchidan, Jomiy hofiz Navoiy, Fuzuliylar qatorida tilga olingan. Ikkinchidan, ma'ruzada Boburning Jomiyga bergan bahosi qayd etilgan. Uchinchidan, Jomiy va o'zbek adabiyoti masalasi ochiqqlangan. To'rtinchidan esa, Navoiy va Jomiyning do'stona munosabatlariga ham izoh berilgan. Beshinchidan, Jomiy devonlari Navoiyning "Xazoyin ul-maoniy"si bilan qiyoslangan va G'.G'ulomning "Ularni bir-biriga ustoz, bir-biriga shogird" degan talqini keltirilgan. Oltinchidan, Jomiyning "Haft avrang"i hamda Jomiy va Navoiyning xislatlari, Navoiy "Xamsa"siga murojaat qilingan. Yettinchidan, Navoiyning "Majolis un-nafois", "Muhokamat ul-lug'atayn", "Mahbub ul-qulub" asarlarida Jomiy nomi, dahosi, oliyjanob fazilati, umuman, Sharq adabiyotida Jomiyning buyuk va yorqin siymosi ko'rsatilgan. G'.G'ulomning yozishicha, "Ularning ijodxonasi bir-biridan nur olgan". Sakkizinchidan, G'.G'ulom ham ko'plab navoiyshunoslar qatori uning "Xamsat ul-mutahayyirin" asari va Jomiy siymosi masalasini ochiqqlagan. Y.E.Bertelsning Jomiy haqidagi monografiyasi, Sh.Shomuhamedovning "Jomiy" risolasi, P.Shamsiyevning "Jomiy va Navoiy" kitoblari va uning Dushanbe va Moskvadagi nashrlari xususida, xullas, Jomiy ijodini teran o'rganish va targ'ib qilishga rag'bat masalasi uning purshukuh anjumanda so'zlagan nutqida talqin qilinganini sezish mumkin. G'.G'ulom Navoiy maqbarasini ham ziyorat qiladi va mahorat bilan "Navoiy deb Musalloga kelibmen intixob aylab " muxammasini yozgan.

Ma'lumki, Jomiyning buyuk shaxsi va uning ma'lum bir asarlariga o'z davrida va keyin ham miniatyuralar ishlangan. Biz yuqorida tilga olib o'tdikki, sharqshunos olim Muqaddima Ashrafiy "XVI asrda yaratilgan miniatyuralarda Jomiy siymosi" nomli kitob yozgan va Germaniyada nashr qilgan. Tarixchi olim A.Madramov bu masala va muammoni o'rganib "Jomiyning "Yusuf va Zulayho" dostoniga ishlangan miniatyuralar haqida" nomli tadqiqot yozgan. Olim Jomiyning mashhur "Yusuf va Zulayho" qissasiga va uning qahramonlariga ishlangan miniatyuralarni o'rgangan, ya'ni olim qaysi naqqosh miniatyura chizgan, qanday uslubda, bugun qaerlarda saqlanadi kabi masala va muammolarni yoritgan va "Yusuf va Zulayho" qo'lyozmalarini miniatyura ishlangan, shuningdek, miniatyura ishlanmagan variantlarga bo'lib o'rganish mumkinligini aytgan. Endi qo'lyozmalarga ishlangan miniatyuralar, bizga ma'lumki, qo'lyozmaning hoshiya va chekkalariga chiziladi. Bu naqqoshdan ancha mehnat talab qiladi. Ba'zilariga tilla suvi beriladi. Demak, Jomiy qalamiga mansub "Axsana" qissasining shunday variantlari mavjudligidan xabar topamiz.

Ilyos Ismoilov "Alisher Navoiyning "Saddi Iskandariy" dostoni genezisi va poetikasi"[11. 320 b] monografiyasining o'nlab lavhalarida Jomiy nomini ham tilga olgan. Olim ma'lumotiga ko'ra, Jomiyning "Xiradnomayi Iskandariy"si 2315 baytdan, Navoiyning "Saddi Iskandariy"si 7315 baytdan iborat ekani, Navoiyniki ham hajman, ham mazmunan, ham obrazlar olamining ko'pligi, ham tafakkur talqinini boyligi bilan ajralib turishini yaxshi tadqiq etgan. Bunga yaqin fikrni navoiyshunos A.Abduqodirov ham o'zining "Saddi Iskandariy: an'ana va o'ziga xoslik"[2. 106-113] maqolasida ham qisman aytib o'tgan. Ko'rinadiki, navoiyshunos I.Ismoilov bu masalani keng planda tahlil qilgan, tadqiqoti davomida esa Jomiy ijodxonasiga, mahoratiga yuzlangan, deyish mumkin.

Yuqoridagi misollarimizdan ayonki, Jomiy haqidagi ma'lumotlar adabiy-tarixiy manbalarda aks etgan. Shu an'anani davom ettirib, akademik I.Mo'minov tahriri ostida 1971-yil nashr bo'lgan "Samarqand tarixi"ning 1-tomida yozilgan "Samarqand – XIV-XV asrlarda Movarounnahrda ilmiy tafakkurning markazi" nomli 4-bobning "Adabiy hayot" qismida Temur va temuriylar davrida Samarqand adabiy hayotning shakllanishi, madaniy ko'tarilishi, ijodkorlari haqida qimmatli ma'lumot bayon qilingan. Mualliflar Samarqand adabiy-ilmiy muhitining tarixiy tadrijini yoritib ekan, ma'lum bir qismini Abdurahmon Jomiy va Navoiy bilan bog'laydi. Bu ikki buyukning Samarqandda olgan tahsillariga alohida urg'u berishadi. Kitobda Jomiyning Samarqandda Ulug'bek madrasasida olgan tahsili va keyinchalik yana Samarqandda uch marta bo'lishi, o'z davrining naqshbandiya tariqati sardori Xo'ja Ahror Valiy bilan Samarqandda qilgan muloqotlari, u bilan Samarqanddan tashqari Toshkent, Jizzax, Xovos kabi kentlarida birga bo'lishi haqida boy ma'lumotlar keltirilgan. Chunonchi: "Mashhur shoir Abdurahmon Jomiy (1414-1492) Samarqandda uch marta bo'lgan edi. Ilk bor u Samarqandga XV asrning yigirmanchi yillarida kelgan va Ulug'bek madrasasida ta'lim olgan. Bu yerda ajoyib astronomlar Qozizoda Rumiy, Alouddin Samarqandiy va Ulug'bek ma'ruzalarini zo'r e'tibor bilan tinglagan. Ulug'bek madrasasida Samarqandda talaba sifatida o'qigan yillari Jomiyning ilmiy dunyoqarashi va adabiy ijodining shakllanishi hamda rivojlanishida chuqur iz qoldirdi.

Jomiy Samarqand ikkinchi marta elliginchi yillarda olimlarning taklifiga ko'ra, Ulug'bek madrasasiga mudarris sifatida taklif etildi. Ana shu madrasaning sobiq talabasi bo'lgan Jomiy o'z tinglovchilariga fan asoslarini zo'r muhabbat bilan o'rgatdi. U samarqandlik shoirlar va olimlar (Xo'ja Xisrav, A'loiy Shoshiy, Fazlullo Abullaysiy, Riyoziy Samarqandiy, Javhariy va boshqalar) bilan yaqindan aloqa bog'ladi.

Jomiy Samarqandga uchinchi marta yetmishinchi yillarda Xo'ja Ahrorning taklifiga binoan keldi. Bu safar Jomiy Samarqanddagina bo'lib qolmay, balki Xo'ja Ahror bilan birgalikda Jizzax, Xovos, Toshkent va Movarounnahrning boshqa shaharlarida ham bo'ldi"[17. 239-249].

Yoki "Ulug' o'zbek shoiri va mutafakkiri Alisher Navoiyning hayoti va ijodi ham Samarqand bilan chambarchas bog'liqdir.

Shunday qilib, Movarounnahrning o'sha davrdagi adabiy hayot markazi Samarqandda Abdurahmon Jomiyning bo'lishi, badiiy mahoratining kamol topishi, ijodi, adabiy-tanqidiy qarashlarining o'sishida katta rol o'ynadi.

Navoiy o'zining epik va ilmiy-tanqidiy asarlarida Samarqand va uning ajoyib joylari – Ulug'bek madrasasi, Ko'hak tepaligi, Zarafshon daryolari va boshqalarni katta mahorat bilan tasvirlaydi.

Samarqand Temur va temuriylar davrida adabiy hayot markazi sifatida o'zbek xalqi va O'rta Osiyoning boshqa xalqlari o'rtasida muhim rol o'ynadi" [17. 241-242].

O'zbek badiiy adabiyotida Jomiy siymosini ilk badiiy talqin qilgan adib, dramaturg M.Shayxzoda bo'ladi. U "Mirzo Ulug'bek" tragediyasida o'quvchilarga 26 yoshdagi talaba Jomiy obrazini tanishtiradi va donishmand hukmdor Mirzo Ulug'bek madrasasida tahsil olishi, hukmdor bilan bo'lgan muloqotini badiiy talqin qilgan.

O'zbek navoiyshunoslari Jomiyning ilmiy va badiiy asarlarini mahorat bilan o'zbek tiliga tarjima qilishgan, buni kelajakda alohida yoritishga harakat qilamiz.

Xulosa shuki, navoiyshunoslar Navoiy haqida yozgan tadqiqotlarida Jomiy ijod olamiga quyidagi maqsadlarda murojaat qilishgan va ma'lum ma'noda jomiyshunoslik fani rivojiga o'z hissalarini qo'shishgan. Bular, birinchidan, Navoiyning ulug'

zamondoshi sifatida, ikkinchidan, ilmiy va ijodiy hamkorlikni, adabiy hayotni yoritishda hamda xislat va fazilatlar talqinida, uchinchidan, asarlari, xususan, “Xamsat ul-mutahayyirin”, “Xamsa”, she’riy devonlari tahlilida, to’rtinchidan, esa ikki xalq badiiy adabiyot rivojida buyuk xizmatlarini yoritishda, ibrat qilib ko’rsatishda namoyon bo’ladi.

Foydalangan adabiyotlar:

1. Абдурахмон Жомий. Рисолаи қофия / Шарқ мумтоз поэтикаси. Ҳ.Болтабоев талқинида. – Тошкент: Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси, 2008.
2. Абдуқодиров А. “Садди Искандарий”: анъана ва ўзига хослик / Абдурахман Жомий ижод олами. – Тошкент: Тамаддун, 2014.
3. Айний С. “Намунаҳои шерърхон форси-точик” Алишери Навои (Фонӣ), куллиёт, чилди II, ки оби якум. – Душанбе, 1963.
4. Айний С. Асарлар. 8-жилд. Мақолалар. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги бадиий адабиёт нашриёти, 1963.
5. Алишер Навоий қомусий луғати. – Тошкент: Шарқ, 2016. 183-185-бетлар.
6. Бертельс Е.Э. Избранные труды. Навои и Джами. – М., 1965.
7. Валихўжаев Б. Мумтоз сиймолар. (Сайланма). – Тошкент, 2002.
8. Жомий. Баҳористон. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2007.
9. Жомийнинг ижод олами. – Тошкент: Тамаддун, 2014.
10. Зоҳидов В. Улуғ шоир ижодининг қалби. – Тошкент: Ўзбекистон, 1970.
11. Исмоилов И. Алишер Навоийнинг “Садди Искандарий” достони генезиси ва поэтикаси. – Тошкент: Анорбокс, 2022.
12. Мамадалиева З. Ҳотами Той образи талқинлари ёки саховат вав ҳимматга бўлган икки даҳо муносабати / Абдурахмон Жомийнинг ижод олами. – Тошкент: Тамаддун, 2014.
13. Матғозиев З. Ҳотами Тойи. – Тошкент: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт вва санъат нашриёти, 1993.
14. Матёкубова Т. Пуршуқуқ анжумандаги нутқ / Жомий ва ўзбек адабиёти. – Тошкент: Мовароуннахр, 2005.
15. Маллаев Н. Ўзбек адабиёти тирихи. Дарслик. – Тошкент: Ўзбекистон Ўрта ва олий мактаб нашриёти. 1963.
16. Норқулов Н. Темурийлар даври маданий тарихидан лавҳалар. – Урганч: Хоразм, 1996.
17. Самарқанд тарихи. Масъул муҳаррир акад. И.М.Мўминов. Икки жилдлик. 1-том. Тошкент: Фан, 1971.
18. Сирожиддинов Ш. Алишер Навоий манбаларининг қиёсий-типологик, текстологик таҳлили. – Тошкент: Академнашр, 2011.
19. Сирожиддинов Ш., Юсупова Д., Давлатов О. Навоийшунослик. – Тошкент: Академнашр, 2020.
20. Сулаймон Ҳ. Навоийнинг “Фоний” девони // Шарқ юлдузи. –Тошкент: 1965. 9-сон.
21. Султон И. Навоийнинг қалб дафтари. Масъул муҳаррир Н.Каримов. 3-тўлдирилган ва тузатилган наشري. – Тошкент: Ғ.Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2010.
22. Ўзбек адабиёти тарихи. 5 томлик. 2-том. – Тошкент: Фан, 1977.
23. Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 12 жилдлик. 3-жилд. Г-3. – Тошкент: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат нашриёти, 2002.
24. Ўринбоев А., Ҳасаний М. Навоий замондошлари мактубларида. – Тошкент: Фан, 1990.
- Қаюмов А. Алишер Навоий. – Тошкент: Камалак, 1991. 84-86-бетлар.
25. Ғаниева С. Яна “Хамсат ул-миутаҳаййирин” ҳақида / Жомий ва ўзбек адабиёти. – Тошкент: Мовароуннахр, 2005.
26. Ғаниева С. Жомийнинг “Соломон ва Абсол” достони ҳақида / Аюдурахмон Жомийнинг ижод олами. – Тошкент: Тамаддун, 2014.
27. Фитрат. Ўзбек классик мусиқаси ва унинг тарихи. – Тошкент: Фан, 1990.
28. Қаюмов А. Алишер Навоий. – Тошкент: Камалак, 1991.
29. Ҳайитметов А. Навоийхонлик суҳбатлари. – Тошкент: Ўқитувчи, 1993.

30. Хайитметов А. Мерос ва ихлос. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1991.
31. Ҳамроева О.Ж. Темурийлар давридаги поэтикага доир рисолаларда қофия илмининг қийёи таҳлили: Филол. фан. д-ри ... дисс. автореф. – Тошкент, 2022.
32. Шарқ мумтоз поэтикаси манбалари. – Тошкент: Мумтоз сўз, 2008.

ABDURAHMON JOMIY VA ALISHER NAVOIY G'AZALLARIDA YUSUF (A. S.) SIY MOSINING BADIY TALQINLARI

Mullaxo'jayeva Karomat Toshxo'jayevna
Filologiya fanlari nomzodi, dotsent, TDO'TAU
kmullahodjayeva@gmail.com
10.52773/tsuull.conf.navoiy.2025/TXEL2164

Annotatsiya. Maqolada Alisher Navoiy va Abdurahmon Jomiy g'azallarida Yusuf siymosining qo'llanilish xususiyatlari haqida fikr yuritiladi. Muallif Qur'oni karim bilan to'g'ridan-to'g'ri genetik bog'langan muhim motivlarning ikki shoir g'azallariida qo'llanilishiga xos masalalarga e'tiborni qaratadi, o'xshah va farqli jihatlarni aniqlaydi.

Kalit so'zlar: mavzu, motiv, g'azal, Yusuf, badiiy talqin, an'ana va o'ziga xoslik.

Abstract. This article examines the representation of the figure of Yusuf in the ghazals of Alisher Navoi and Abdurrahman Jami, focusing on the distinctive features of their use of this image. The study highlights the incorporation of significant motifs directly linked to the Holy Qur'an within the ghazals of both poets, exploring how these motifs are adapted and interpreted in their respective works. By identifying the similarities and differences in the portrayal of Yusuf, the article offers a comparative analysis of the thematic and stylistic approaches of Navoi and Jami, shedding light on their respective contributions to the literary and spiritual traditions of the period.

Keywords: theme, motive, ghazal, Yusuf, artistic interpretation, tradition and originality.

Sharq adabiyotida Qur'oni karimdan ko'chgan Yusuf timsoli va u bilan bog'liq mavzu-masalalar ushbu adabiyotdagi boshqa an'anaviy obrazlar kabi mustahkam o'rin tutdi. Umuman, mumtoz adabiyotdagi obrazlar fondinig boyishida Qur'oni karimning o'рни muhim. Diniy tushunchalar, islom tarixidagi buyuk siymolar va ularning faoliyati bilan bog'liq hodisalar mumtoz adabiyotning mazmunan boyishiga, hikmat ohangining teranlashishiga va albatta, insonning dunyoni to'g'ri anglashi, tiriklikning mohiyatini tushunib yetishi, o'zini tanishi kabi ko'plab masalalarda va muhimi, mohiyatga kirib borishida mislsiz qimmatga ega. Ushbu tushunchalar, buyuk siymolar va hodisalar talqini badiiy adabiyotda, xususan, lirikada eng nozik tuyg'ularni kitobxonning ko'ngliga yetadigan darajada ifodalashga imkon bergan bo'lsa, ularning badiiy transformatsiyasi bu adabiyotda yangi ufqlarni ochdi – tuyg'u-kechinmalarning aytilmoqchi bo'lgan fikr bilan mutanosib ifoda topishi, yangi mavzu va motivlarning shakllanishi, takomillashishi va yuksalishi uchun xizmat qildi.

Qur'ondagi "ahsan ul-qissas" – go'zal qissa mumtoz asarlarda badiiy ijod, umuman, adabiyot qonun-qoidalari asosida rivojlandi. Qur'oni karimda e'tibor qaratganimizdek ko'plab payg'ambarlar tarixiga asos bo'lgan ma'lumotlar bisyor. Ammo ular Qur'on suralari bo'ylab sochilib ketgan. Birgina Yusuf qissasi bir surada

MUNDARIJA CONTENTS	
Shuhrat SIROJIDDINOV. Turkiy dunyo hamkorligining mustahkam asosi Туркі әлем ынтымақтастығының мықты негізі	7
Қанат БАЙБОЛОВ. Екі халық арасындағы бауырлық пен достық рәмізі Ikki xalq qardoshligi va do'stligi simvoli	11
I SHO'BA. ALISHER NAVOIY ADABIY MEROSINING JAHON TAMADDUNIDA TUTGAN O'RNI SECTION I. THE PLACE OF ALISHER NAVAII'S LITERARY HERITAGE IN WORLD CIVILIZATION	
Boqijon TO'XLIYEV. Nasimiy va Navoiy nazmi – badiiy tafakkurning yangi bazmi	15
Islam JEMENEY. Әлішер Навои	23
Yashar QOSIM. Dohiy Alisher Navoiyning ulug' izdoshi (Muhammad Fuzuliy sheiriyatida poetik in'ikos tarzining o'ziga xosligi)	35
Qodirjon ERGASHEV. Renessans adabiyotida etologik janr taraqqiyoti	42
Əlimuxtar MUXTAROV. Nizami Gencevi ve Alişir Navai'nin tür ruhu eserlerinin ve araştırmacılarının gözü ile	47
Roviyajon ABDULLAYEVA. Alisher Navoiy fenomeni yoxud Navoiy ijodining olamshumul ahamiyati	52
Насриддин НАЗАРОВ. Гуманизм и креативность в творчестве Наваи как фактор обеспечения связей между народами Евразии	60
Burobiya RAJABOVA. O'zbek navoiyshunoslari Jomiy haqida	67
Karomat MULLAXO'JAYEVA. Abdurahmon Jomiy va Alisher Navoiy g'azallarida Yusuf (a. s.) siymosining badiiy talqinlari	77
Tozagul MATYOQUBOVA. Sharq adabiyotining yetuk tadqiqotchisi	82
Nosir JO'RABOYEV. Ikki turkman hukmdori ijodi va Alisher Navoiy	87
Молдасанов Е.М., АБДУВАЛИТОВ Н.Б. Әлем әдебиетінің асқар шыңы (Әлішер Науаидың 584 жылдығына орай)	95
Hulkar HAMROYEVA. Alisher Navoiy ijodida san'at talqini	99
Злиха ЖАНТАСОВА. Шығыс әдебиетінің қазақ фольклорындағы көрінісі	103
Sherxon QORAYEV. Alisher Navoiy Badaxshon shohi va shoir Sulton Muhammad La'liy ijodi tadqiqotchisi (Navoiy va uning zamondoshlari tazkiralari ma'lumotlari asosida)	109
Ahmad AKHLAQUE, Asror Allayarov. Alisher Navoi's creative works: a scientific exploration	115

Fayzulla ISKANDAROV, Dostonjon Tojiev. “Alisher Navoi international award”: establishment and historical significance for the turkic world	118
Diyora ABDUJALILOVA. Alisher Navoiy va Yahyobey Toshlijali dostonlarida shayx va avliyolar timsoli	124
Orifjon OLIMJANOV. Alisher Navoiy va Lorendeli Hamdiy “Layli va Majnun” dostonlari kompozitsiyasiga doir	131
II SHO‘BA. NAVOIY NAZMIY, NASRIY VA ILMIY MEROSINI O‘RGANISH MASALALARI SECTION II. ISSUES OF STUDYING NAVAIY'S POETRY, PROSE AND SCIENTIFIC HERITAGE	
Nurboy JABBOROV. Alisher Navoiy “Tarixi anbiyo va hukamo” asarining siyarnoma turkumida tutgan o‘rni	136
Nusratullo JUMAXO‘JA. Navoiyning yigitlik lirikasiga mansub mustazodi	149
Maqsud ASADOV. Alisher Navoiy “Tanbeh”larining g‘oyaviy-badiiy xususiyatlari (“Mahbub ul-qulub” asari misolida)	155
Dr. Kemal Yavuz ATAMAN. Ali Şir Nevaî beyitlerinde kulluk şuuru	160
Zuhriddin ISOMIDDINOV. Navoiyning “qaychi” g‘azali	165
Baxtiyor FAYZULLOYEV. Qo‘qon adabiy muhitida Navoiyga izdoshlik	170
Iqboloy ADIZOVA. Adabiy ta’sir va poetik tafakkurning yangilanishi	177
Nafas SHODMONOV, G‘iyosiddin SHODMONOV. Olti dostonida Odam Ato timsoli talqini	185
Faridaxon KARIMOVA. Xorazm adabiy muhitida debochanavislik an’analari	193
Islomjon YAQUBOV. O‘zaro ta’sir, ijodiy mushtaraklik va o‘ziga xoslik	200
Shavkat HAYITOV, Gulshod SHOYIMOVA. Alisher Navoiyning nabotot va hayvonot olamiga munosabati	205
Obidjon KARIMOV. Alisher Navoiy irfoniy olamining yangicha talqini	212
Gulbahor ASHUROVA. O‘zbek ayol shoiralari ijodida Alisher Navoiy obrazi tasvirlari	216
Qo‘ldosh PARDAYEV. Navoiy g‘azallariga Muqimiyning nazira va taxmislari	221
Ilyos ISMOILOV. Abror hayrati	226
Shermuhammad AMONOV, Abdulhaq RAHIMI. Alisher Navoiy mustazodiga bog‘langan muxammas haqida	229
Zilola AMONOVA, Shahlola SAFAROVA. “Farhod va Shirin” dostonidagi na’t boblarning manbalari va badiiyati	235
Abdulhamid QURBONOV. Badiiy matn va tasviriy vositalar mutanosibligi	242
Muqaddas TOJIBOYEVA. Abdulla Qodiriy romanlarida Alisher Navoiyga izdoshlik masalalari xususida	248
Orzigul HAMROYEVA. Radifning bayt kompozitsiyasidagi o‘rni	252

Ma'rifat RAJABOVA. Xalq maydon kulgi san'ati belgilarining Navoiy ijodidagi ko'rinishlari	256
Nodira SOATOVA. "Farhod va Shirin" dostoni – an'ana takomili, taraqqiysi hamda sintezi sifatida	260
Umida RASULOVA. "Alisher Navoiy" romanida obraz poetikasi	266
Marg'uba ABDULLAYEVA. Yetti sayyora: badiiy talqin va ilmiy dunyoqarash	269
Sohiba UMAROVA. Suyuma G'aniyeva – navoiyshunos	273
Zuhra MAMADALIYEVA. Alisher Navoiy "Xamsa"sida mirrix obrazining majoziylik xususiyatlari	277
Aziz RAJABIY. Alisher Navoiy g'azallarining ohang jilolari (Yunus Rajabiy musiqiy merosi misolida)	282
Zarif QUVONOV. "Hayrat ul-abror"ning yangi tadqiqatlari xususida	286
Farruxbek ABDALIYEV, Gulnoza OSMANOVA. "Xamsa"da "kampir" obrazi talqini	290
Nafisa RAXMANOVA. Ramziy-majoziy obrazlar ta'vili haqida mulohazalar	293
Kamola ULUG'MURODOVA. Navoiy nazmida Layli obrazining badiiy talqini	299
Mavluda ORTIQOVA. Alisher Navoiyning "Nasoyim ul-muhabbat" asarida valiylarga xos sifatlar talqini	303
Jamila EISAR. Alisher Navoiyning she'riyatida oyina timsolining talqini ("G'aroyib us-sig'ar misolida")	308
Azizbek TOSHPO'LATOV. Alisher Navoiyga izdoshlik: Ahmad Tabibiy taxmislari	313
Sevara PARMONOVA. Tasavvufiy tazkiralari va Alisher Navoiy asarlarida Ibrohim Adham nomining zikr etilishi	318
III SHO'BA. ALISHER NAVOIY ASARLARINING MANBALARI VA MATNIY TADQIQI SECTION III. SOURCES AND TEXTUAL RESEARCH OF ALISHER NAVAI'S WORKS	
Dilnavoz YUSUPOVA, Umedullo MAHMUDOV. Alisher Navoiyning "Munshaoti Abdulloh Marvorid"dan o'rin olgan forsiy maktublari xususida	323
Manzar ABDULXAYROV. Alisher Navoiyning "Farhod va Shirin" dostoni tabdillari tahlili	330
Dr. Farhad RAHIMI. Senglah Sözlüğünün Feraği Düzeltmeleri ve Feraği'den Yanlış ktarmaları Üzerine	335
Gholamreza RAZMI. Özbekistan'da yayimlanmiş iki Hayretü'l-ebrar'in tashih edilmiş metnindeki hatalarin sebeplerine bir bakiş	352
Altay NOORULLAH. Navoiy asarlarida tinish belgilarining yanglish ishlatilishi	365

Sevda BEHESHTI. Navai's Poetry as Reflected in Miniature Paintings (A study of Illustrated manuscripts preserved in Iranian collections)	376
Oysara MADALIYEVA. Alisher Navoiyning dastlabki ikki devoni Hamid Sulaymon nigohida	384
Dr. Siyamek HÜSSEYINALIZADE (Ergin Avşar). Amîr Alî Şîr Nevaî'nin şiirlerinde Şamanlığa aid Terimler ve ritüeller	395
Ozoda TOJIBOYEVA. Parij kulliyotidagi "Favoyid ul-kibar"ning matniy xususiyatlari	407
Husnigul JO'RAYEVA. Husayn Boyqaro – Husayniy adabiy merosining O'zbekistonda o'rganilishi	412
Dilnoza RUSTAMOVA. Alisher Navoiy toshbosma devonlaridagi ayrim g'azallar matnining qo'lyozma nusxalar bilan qiyosi	417
Erfan ESHGHÎNOUR. Fâni Divanındaki Avnî Divanından Tercüme Olunmuş Şiirler Üzerine	423
Lochinbek AHMADALIYEV. Po'latjon Qayyumiy tazkiralarda Alisher Navoiy faoliyatining yoritilishi	433
Dilnavoz SATTOROVA. Navoiy g'azallariga Sa'diy taxmislari	438
IV SHO'BA. ALISHER NAVOIY ASARLARINING XORIJIY TILLARGA TARJIMASI VA CHET ELLARDA O'RGANILISHI SECTION IV. TRANSLATION OF ALISHER NAVA'I'S WORKS INTO FOREIGN LANGUAGES AND STUDY ABROAD	
Hulkar HAMROYEVA, Shahlo NARALIYEVA, Ozodaxon MUSAYEVA. Qozog'istonda Mir Alisher Navoiy ijodining o'rganilishi	444
Abdulhay SOBIROV, Zamira DJURABAYEVA. "Muhokamat ul- lug'atayn" – turkiy xalqlar leksikasining so'nmas bulog'i	451
Münevver TEKCAN, Serpil Yazıcı ŞAHİN. Muhakamat al-lughatayn's literary and academic aspects.	455
Бермет ЗАКИРОВА, Дамилова НУРИЙЛА. Алишер Навоинин чыгармаларындагы тилдик каражаттар аркылуу студенттин кеп маданиятын өстүрүү	462
Nishonboy XUSANOV. "Hayrat ul-abror"dagi teonimlarning semantik va badiiy xususiyatlari	468
Mardon RAHMATOV. Qo'shma fe'l komponentlari inversiyasi	472
Rashid ZOHID. Hayot – firoq manzili	478
Shahlo HOJIYEVA. Alisher Navoiy badiiy kashfiyotlari – Cho'lpon estetik tafakkuri yangilanishi omili	482
Mo'minjon SULAYMONOV. Alisher Navoiy davrida isiriq solinganmi?	488
Abdumurod TILAVOV. Alisher Navoiy ma'naviy merosi va zamonaviy ta'lim	492
Nilufar RASULOVA. Alisher Navoiyning boqiy merosi jahon tillarida	497
Ozodaxon MUSAYEVA, Gulchehra SULTONOVA. "Muhokamat ul- lug'atayn" asaridagi turkiy fe'llar va omonim so'zlar tahlili	502

Iroda ISHONXANOVA. Alisher Navoiy hayoti va ijodining “Литература” darsliklarida aks etishi	505
Shahlo NARALIYEVA, Farrux ABDALIYEV. Hazrat Navoiy ijodida nutq madaniyati	514
АШИРОВА Т.К., КАРАЕВА Н.О., ЗАКИРОВА Б.А. Алишер Навоинин чыгармаларын санарип платформалар аркылуу жайылтуу	518
Dilorom YULDASHEVA, Shahlo NARALIYEVA. Alisher Navoiyning didaktik qarashlari	523
Komiljon ABDULLAYEV. Ta’lim tizimi bosqichlarida Alisher Navoiy hayoti va ijodini o’rgatishda fanlararo integratsiyadan foydalanish	527
Gulnoza YULDASHEVA, Sevinch UBAYDULLAYEVA. “Lison ut-tayr” dostonining ayrim morfemik xususiyatlari tahlili	531
Feruza DJUMANIYAZOVA. Alisher Navoiy ijodida milliy etnosport o’yinlari	534
Hamida JURAQOBILOVA. O’zbek she’riy matnlaridagi kognitiv metaforalarning fransuz tilida ifodalanishi	539
Abdug’ani NASRIDDINOV. Navoiyshunoslikda yangicha yondashuv	544
TEZISLAR ADABIYOTSHUNOSLIK	
AHMADOVA Shohsanam. Hofiz Xorazmiy va Alisher Navoiy ijodida zohid obrazi tasviri	550
ABDURAIMOVA Xafiza. Alisher Navoiy g’azaliyotida Doro obrazi talqinlari	553
ALIYEVA Sevinch. Anbiyolar haqidagi manbalarda Iso payg’ambar obrazi tasviri	556
ALMARDONOVA Aziza. Alisher Navoiy tarji’bandlarida dunyo ramzi	561
DEHQONOV Akramjon. Bir g’azal sharhi	564
DOLIMOV Shokir. «Hayrat ul-abror» dostoni sharhining rus tiliga tarjimai xususida	567
GAFUROVA Shaxnoza. Navoiy me’rojnoma baytlarida qo’llangan badiiy san’atlar	569
IBOTOVA Madina. Alisher Navoiy g’azallarida jon va ishq munosabatining badiiy ifodasi	572
MEYLIYEV Xudoyberdi. Navoiy va zamondoshlari asarlarida Mirzo Mironshoh saroyi adabiy muhiti va shoir Lutfulloh Nishopuriy ijodiy faoliyatining yoritilishi	576
MUQUMOVA Surayyo. “Nasoyim ul-muhabbat”: ism, xosiyat va xususiyat	579
NASRULLAYEV Elmurod, SIROJIDDINOVA Sevinch. Xalq og’zaki ijodida Navoiy timsoli talqini	581

NURULLAYEVA Hulkaroy, MAMADALIYEVA Madina. Alisher Navoiyning “Mahbub ul-qulub” asarini o’qitish bo’yicha ayrim mulohazalar	584
OLIMJONOV Davronbek. “Boburnoma” asarida tarixiy shaxslar tavsifi (Alisher Navoiy shaxsi misolida)	587
PARDAYEVA Nigora, PIRNAZAROVA Barno. Navoiy lirikasida kichik lirik janrlar	589
SHOMURODOV San’at. Alisher Navoiy va Husayn Boyqaro munosabatlari isajon sulton talqinida	593
TO’XTAMURATOV Furqat. Alisher Navoiy g’azaliga Muhsiniy tatabbu’si	596
TURDIYEVA Maftuna. “Layli va Majnun” dostonlari kompozitsiyasidagi ba’zi farqli jihatlar	599
UMAROVA Dildor. Alisher Navoiy asarlarida sukut go’zalligi ifodasi	602
UMAROV Sardorbek. Ma’rifatning haqiqati – hayratdir	604
YANGIBOYEV Shavkat. Ito haqida	607
TILSHUNOSLIK	
YULDASHEVA Dilorom. Alisher Navoiy asarlarida rang-tus ifodalovchi birliklar	611
AXMADJANOVA Malika. Alisher Navoiy va o’zbek tilining boyitilishi: ilmiy metodlar va uslublar	613
AKBAROVA Zulfizargul. Alisher Navoiy asarlarida qo’llanilgan antonimlik hosil qiluvchi “Ahl” komponentli lug’aviy birliklar tahlili	617
YUSUPOVA Dildora. Alisher Navoiy asarlarida qimmatbaho tosh nomlari	619
MUNDARIJA	622